


II. SANOAT


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 21 734,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,1 foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 3,0 mlrd. so'm, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi 21 092,1 mlrd. so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 494,5 mlrd. so'm va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 145,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)



Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %




■ 2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan %, da

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 92,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 109,4 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 77,6 % ga va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 112,8 % ga oʻsishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,014 % ni va oʻsish surʼati indeksi 92,2 % ni tashkil etdi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi va fizik hajm indeksi




Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21 092,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 97,043 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻning ulushi 0,10 % ni (2023- yil yanvar-sentabr oylarida – 0,14 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 37,5 % (2023- yil yanvar-sentabr oylarida – 39,6 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 6,3 % (2023- yil yanvar-sentabr oylarida – 5,1 %) va quyi texnologiyali – 53,1 % (2023- yil yanvar-sentabr oylarida – 50,7 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 22,8 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 21,7 mlrd. soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 8 155,5 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 6 000,7 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 1 363,8 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 778,3 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 11 550,0 mlrd. soʻmlik (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 7 816,4 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)**

| <i>Mahsulot turlari</i> | <i>O‘lchov birligi</i> | <i>2024- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % da</i> |
|---|------------------------|---------------------------------|---------------------------------|--|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) | dona | 70 030,0 | 60 052,0 | 116,6 |
| Maxsus yengil avtomobillar | dona | 18595,0 | 14 975,0 | 124,2 |
| Aroq | ming litr | 204,6 | 97,3 | 2,1 m. |
| Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari | ming litr | 289,9 | 545,0 | 53,2 |
| Gilam va gilam mahsulotlari | ming m.kv | 2 352,0 | 1 942,0 | 121,1 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni | tonna | 24 809,9 | 35 325,8 | 70,2 |
| Tozalangan o‘simlik yog‘i | tonna | 4 310,6 | 4 604,9 | 93,6 |
| Paxtadan yigirilgan ip | tonna | 30 032,2 | 24 838,4 | 120,9 |
| Paxta tolasi | tonna | 70 272,2 | 61 055,5 | 115,1 |
| Paxta chigiti | tonna | 107 163,5 | 100 092,0 | 107,1 |
| Shakar | tonna | 162 141,4 | 198 000,7 | 81,9 |

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – 9 978 donaga, maxsus yengil avtomobillar – 3 620 donaga, gilam va gilam mahsulotlari – 410 ming kv.metruga, paxtadan yigirilgan ip – 5 193,8 tonnaga, paxta tolasi – 9 216,7 tonnaga ishlab chiqarish ko‘paygan.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 494,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 % ni) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 77,6 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

| | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2024- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % da</i> |
|---------------------|------------------------|---------------------------------|---------------------------------|--|
| Elektroenergiya | mln.kVt/s | 982,1 | 1 078,0 | 91,1 |
| Issiqlik energiyasi | ming Gkall | 69,1 | 79,2 | 87,2 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 145,2 mlrd. so'mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,67 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

| <i>Faoliyat turlari</i> | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2024- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</i> |
|--|------------------------|---------------------------------|---|
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar | mlrd.so'm | 127,2 | 116,0 |
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar | mlrd.so'm | 15,1 | 3,4 m. |
| Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar | mlrd. so'm | 29,8 | 188,7 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)

| <i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i> | <i>2024- yil yanvar-sentabr (mlrd. so'm)</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabr (mlrd. so'm)</i> |
|--|--|--|
| Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami | 21 734,8 | 17 246,8 |
| Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 3,0 | 2,8 |
| <i>ulardan:</i> | | |
| Tog' - kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat | 3,0 | 2,8 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 21 092,1 | 16 720,3 |
| <i>shundan:</i> | | |
| Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 4 461,9 | 4 028,2 |
| Ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish | 1 630,6 | 1 610,2 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 4 381,3 | 3 534,4 |
| Kiyim ishlab chiqarish | 357,1 | 121,3 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 33,3 | 12,7 |
| Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish | 131,2 | 40,1 |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish | 242,9 | 171,5 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 10,2 | 5,7 |
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 8,2 | 52,2 |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 56,5 | 39,1 |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 12,8 | 9,0 |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 130,7 | 93,8 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 715,0 | 517,6 |
| Metallurgiya sanoati | 48,9 | 38,8 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 429,1 | 275,7 |
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish | 10,0 | 15,0 |
| Elektr uskunalari ishlab chiqarish | 53,5 | 77,8 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish | 235,9 | 101,3 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 7 809,5 | 5 800,5 |
| Mebel ishlab chiqarish | 213,5 | 75,7 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 87,8 | 84,7 |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish | 32,0 | 15,0 |


| <i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i> | <i>2024- yil yanvar-sentabr (mlrd. so‘m)</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabr (mlrd. so‘m)</i> |
|---|--|--|
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash | 494,5 | 432,9 |
| Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 145,2 | 90,8 |

Iqtisodiy faoliyat turlaridan 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 4 381,3 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 3 534,4 mlrd. so‘m), avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 7 809,5 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 5 800,5 mlrd. so‘m), boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 715,0 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 517,6 mlrd. so‘m), mebel ishlab chiqarish 213,5 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 75,7 mlrd. so‘m), ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 1 630,6 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 1 610,2 mlrd. so‘m) oshganligini, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 8,2 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 52,2 mlrd. so‘m), elektr uskunalar ishlab chiqarish 53,5 mlrd. so‘m (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 77,8 mlrd. so‘m) kamayganligini ko‘rish mumkin.

Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish
(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)
(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)


| <i>Shahar va tumanlar nomi</i> | <i>Sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘mda</i> | <i>2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi,%</i> |
|--------------------------------|--|--|
| Xorazm viloyat bo‘yicha | 21 734,8 | 108,1 |
| Urganch sh. | 2 941,2 | 102,2 |
| Xiva sh. | 309,8 | 107,8 |
| Bog‘ot | 478,0 | 102,1 |
| Gurlan | 497,3 | 107,9 |
| Qo‘shko‘pir | 474,8 | 110,8 |
| Urganch | 937,9 | 107,2 |
| Hazorasp | 451,3 | 107,0 |
| Tuproqqal‘a | 10 093,3 | 108,4 |
| Xonqa | 790,8 | 108,2 |
| Xiva | 378,6 | 108,4 |
| Shovot | 722,8 | 106,6 |
| Yangiariq | 578,4 | 105,3 |
| Yangibozor | 606,6 | 108,3 |

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi Urganch shahrida 2,2 foizga, Xiva shahrida 7,8 foizga, Bog'ot tumanida 2,1 foizga, Gurlan tumanida 7,9 foizga, Qo'shko'pir tumanida 10,8 foizga, Urganch tumanida 7,2 foizga, Hazorasp tumanida 7,0 foizga, Tuproqqal'a tumanida 8,4 foizga, Xonqa tumanida 8,2 foizga, Xiva tumanida 8,4 foizga, Shovot tumanida 6,6 foizga, Yangiariq tumanida 5,3 foizga, Yangibozor tumanida 8,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 46,4 foiz, Urganch shahri 13,5 foiz, Urganch tumani 4,3 foiz, Xonqa tumani 3,6 foiz, Shovot tumani 3,3 foiz, Yangibozor tumani 2,8 foiz, Yangiariq tumani 2,7 foiz, Gurlan tumani 2,3 foiz, Qo'shko'pir tumani 2,2 foiz, Bog'ot tumani 2,2 foiz, Hazorasp tumani 2,1 foiz, Xiva tumani 1,7 foizni hamda eng past bo'lgan va Xiva shahri 1,4 foizni tashkil qildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida, foiz hisobida




Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalar tomonidan 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 12 812,2 mlrd. so‘mlik, hududiy korxonalar tomonidan 6 448,6 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 92,1 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,5 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 19 168,7 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,5 % ni tashkil etdi.

Hududiy va tarmoq korxonlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, mlrd so‘m (2024- yil yanvar-sentabr oylari)

Viloyatda 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududiy korxonalar tomonidan 6 448,6 mlrd. so‘mlik, tarmoq korxonalar tomonidan 12 812,2 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




2024- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

| <i>Shahar va tumanlar nomi</i> | <i>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, ming so'm</i> |
|---------------------------------|--|
| Xorazm viloyati bo'yicha | 10 822,6 |
| Urganch sh. | 19 081,5 |
| Xiva sh. | 3 121,7 |
| Bog'ot | 2 696,8 |
| Gurlan | 3 145,2 |
| Qo'shko'pir | 2 591,4 |
| Urganch | 4 357,8 |
| Hazorasp | 2 176,1 |
| Tuproqqal'a | 168 843,9 |
| Xonqa | 3 961,4 |
| Xiva | 2 427,3 |
| Shovot | 3 982,9 |
| Yangiariq | 4 671,3 |
| Yangibozor | 6 521,7 |

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili, Tuproqqal'a tumanida (168 843,9 ming so'm), Urganch shahrida (19 081,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (10 822,6 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qolgan Hazorasp tumanida (2 176,1 ming so'm), Xiva tumanida (2 427,3 ming so'm) va Qo'shko'pir tumanida (2 591,4 ming so'm) ko'rsatkich past ekanligini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o'sishi, 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %da




2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o'sishi, 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,1 % ni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,1 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 4 698,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 21,6 %ni tashkil etmoqda.


**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, %da
(2024- yil yanvar-sentabr oylari)**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Urganch tumanida (59,7 %), Xiva shahrida (56,3 %), Qo'shko'pir tumanida (53,8 %), Xonqa (45,9 %), Bog'ot tumanida (35,9 %), tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqal'a (2,0 %) tumanida kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarilishi mlrd. so'm**


2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlaridan Urganch shahrida 1 021,1 mlrd. so'mlik, Urganch tumanida 560,0 mlrd. so'mlik, Xonqa tumanida 362,9 mlrd. so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 255,6 mlrd. so'mlik, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Qo'shma korxonalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Hisobot davrida 23 ta qo'shma korxonadan 1 918,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 8,8 % ni tashkil etdi.

Viloyatda qo'shma korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo'yicha qo'shma korxonalarining umumiy hajmidagi ulushi, %da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 4 137 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 672 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,2 %) Urganch shahriga, 465 tasi (11,2 %) Urganch tumaniga, 398 tasi (9,6 %) Qo'shko'pir tumaniga, 396 tasi (9,6 %) Xonqa tumaniga va 331 tasi (8,0 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2024- yil yanvar-sentabr)



Viloyatda 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 1 339 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo‘lib, shularning 193 tasi Shovot tumaniga, 126 tasi Urganch tumaniga, 124 tasi Yangiariq tumaniga, 120 tasi Hazorasp tumaniga, 114 tasi Urganch shahriga, 110 tasi Xiva tumaniga, 98 tasi Xiva shahriga, 92 tasi Gurlan tumaniga to‘g‘ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 80 ta loyiha bo‘yicha 724,8 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari




**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar – sentabr oylari uchun)**

| <i>Shahar va tumanlar nomi</i> | <i>Loyihalar soni, birlikda</i> | <i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i> | <i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, mln AQSh dollari</i> | <i>Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda</i> |
|--------------------------------|---------------------------------|---|--|--|
| Jami: | 78 | 1 221,8 | 8,2 | 224 |
| <i>shundan;</i> | | | | |
| Urganch sh. | 17 | 110,352 | 1,819 | 100 |
| Xiva sh. | 2 | 91,744 | 0,257 | 63 |
| Bog'ot | 1 | - | - | - |
| Gurlan | 5 | 2,763 | - | - |
| Qo'shko'pir | 3 | 8,714 | 0,384 | - |
| Urganch | 5 | 19,656 | 0,184 | 13 |
| Hazorasp | 5 | 4,738 | - | 5 |
| Tuproqqal'a | 24 | 847,394 | 5,539 | 25 |
| Xonqa | 2 | 8,991 | - | 10 |
| Xiva | 4 | 0,929 | - | 6 |
| Shovot | 5 | 125,306 | - | - |
| Yangiariq | 3 | 0,995 | - | 2 |
| Yangibozor | 2 | 0,175 | - | - |

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 17 ta loyihada 110,352 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 2 ta loyihada 91,744 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 5 ta loyihada 2,763 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 3 ta loyihada 8,714 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 5 ta loyihada 19,656 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 4,738 mlrd so'mlik, Tuproqqal'a tumanida 24 ta loyihada 847,394 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 2 ta loyihada 8,991 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 4 ta loyihada 0,929 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 5 ta loyihada 125,306 mlrd so'mlik va Yangiariq tumanida 3 ta loyihada 1,0 mlrd so'mlik, Yangibozor tumanida 2 ta loyihada 0,175 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda



Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 69,4 foiz, Shovot tumani 10,3 foiz, Urganch shahri 9,0 foiz va Xiva shahri 7,5 foizni hamda eng past bo'lgan Yangiariq tumani 0,1 foiz va Yangibozor tumani 0,01 foizni tashkil qildi.

Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Iste'mol tovarlari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarida (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi.

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash - Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.